

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2024



1/2024



Shaxriddinov F.F., Ibragimov A.K., Bozorova B.A., Yuldasheva R.G.	Oziq-ovqat mahsulotlarini vitaminlar bilan boyitish usullari	103
Бердимуродов Х.Т., Рахмонов Э.К., Абдухалиева М.А., Эркинова Г.У., Шойматова Х.К.	Анализ изменения содержания белка в солоде при замачивании ячменя	110

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Нигматова Л.Х.	Контрастивная лингвистика в современном языкознании	119
Bobokalonov R.R., Atoyeva G.A.	G'arb tilshunosligida til va nutq bahsi	124
Ataboyev N.B., Abdullahayeva N.A.	Inglizcha va o'zbekcha diniy matnlar koprus tahlilida islomiy terminlar va iboralar tadqiqi	129
Bobokalonov R.R., Bekmurodova S.M.	Noverbal nutqning neyropsixolingvistik shartlari va sabablari	133
Bobokalonov O.O., Shamsiyeva U.I., Bekmurodova S.M.	Impact of neuropsycholinguistics on French-speaking society	139
Kuldosheva Sh.O.	Ingliz va o'zbek tillarida pretsedent nomlarning qiyosiy lingvokulturologik tahlili	145
Bobokalonov R.R., Boboqulova M.Sh.	Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxsni xarizmali insonga integratsiyalash	150
Mayliyeva G.B.	O'zbek va ingliz tillarida sifatning semantik xususiyatlari (T.Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asari 2-bobi tahlili misolida)	156
Bafoyeva N.A.	Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanı toponimiyasining fonetik, leksik-semantik va so'z qurilishi tahlili	161
Bobokalonov R.R., Nurmatova M.F.	Ayollar nutqining lingvodidaktik xususiyatlari	168
Ruziyeva N.X.	Rate of imposition as the main factor of influencing politeness	176
Qosimova N.F., Safarova Z.Z.	Meaning, inference, and the role of maxims in connection with word stress in pragmatics	181
Sharipova D.Sh.	The place of the symbol in the system of tropes	185
Ummatkulova Ch.A.	Utilizing podcasts to enhance students' listening and speaking skills	192
Rasulov Z.I., Xikmatova Sh.U.	Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklari - ekvivalent siz leksika va realiyalarni tarjima qilish usullari	198
Xolmuxamedov B.F.	Milliy korpusga bo'lgan ehtiyoj	202
Намозова К.Б.	Tўй маросимлари лексикасининг миллий-маданий хусусиятларининг ўрганилиши	207
Rahmatullayev Sh.N.	O'zlashma so'zlar asosida shakllangan antroponomilar	214
Kaxorova N.N.	Reading as psycholinguistic process	218
Холматова В.Н.	Сўрқ тузилмаларнинг коммуникатив мазмунидаги силжишлар	222
Mahmudova N.R.	Gradatsiyaning pertseptiv belgilari konseptual sferada farqlanishi	227
Mehmonova Y.Ch.	Terminologik kolokatsiyalarning xususiyatlari va ularning ishlatalishi	234
Tursunov M.M., Egamova Sh.A.	"Hayot" konsepti yordamida ingliz va o'zbek frazeologik olamini tasvirlash yo'llari	239
Ataboyev N.B.	Korpus linguistikasi: korpus tahlil metodlari yordamida til leksik qatlaming boyishi tadqiqi	244
Valiyeva N.Sh.	Structural aspects of formation and development of chemical terminology	251

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Ражабов Д.З., Жамилова Б.С.	Болалар адабиётининг мохир тадқиқотчиси	257
--	---	-----

**MILLIY-MADANIY XUSUSIYATGA EGA TIL BIRLIKLARI - EKVIVALENTSIZ
LEKSIKA VA REALIYALARINI TARJIMA QILISH USULLARI**

Rasulov Zubaydillo Izomovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d. (DSc)
Xikmatova Shafoat Uyg‘un qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti
shafoat525@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ekvivalent bo‘lmagan lug‘atni tarjima qilish muammolariga bag‘ishlangan. Tilshunoslikda bunday lug‘atni boshqa tilga tarjima qilishning barcha usullari yaratilmagan. Agar biz turli xalqlarning tillari va madaniyatlarini solishtirsak, mos keladigan va mos kelmaydigan elementlarni aniqlashimiz mumkin. Mos kelmaydigan elementlarga, birinchi navbatda, ekvivalent bo‘lmagan lug‘at bilan ifodalangan obyektlar va bir tildagi so‘zlarga xos bo‘lgan va boshqa tildagi so‘zlarda mavjud bo‘lmagan yoki boshqacha bo‘lgan konnotatsiyalar kiradi. Ekvivalentsiz leksika deganda buyumlar, jarayonlar va hayotning boshqa vogeliklarini bildiruvchi so‘zlar va iboralar tushuniladi, ularni tarjima qilganda muqobil variantini topish mushkul, chunki ekvivalentsiz so‘zlar har bir xalq so‘z zaxirasida ularning milliy-madaniy hayotini ko‘rsatib turadi.

Kalit so‘zlar: ekvivalentsiz leksika, realiya, transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, tasviriy metod, giperonomik tarjima, konkretlashtirish, spetsifikatsiyalash, assotsiativ tarjima.

**ЯЗЫКОВЫЕ ЕДИНИЦЫ С НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫМИ
ХАРАКТЕРИСТИКАМИ – СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА БЕЗЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ И
РЕАЛИЙ**

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам перевода безэквивалентной лексики. В языкоznании еще не созданы все способы перевода такой лексики на другой язык. Если сравнивать языки и культуры разных народов, то можно выявить совместимые и несовместимые элементы. К неконгруэнтным элементам относятся, прежде всего, неэквивалентные словарные единицы и коннотации, специфичные для слов одного языка и отсутствующие или отличающиеся от слов другого языка. К безэквивалентной лексике относятся слова и словосочетания, обозначающие предметы, процессы и другие реалии жизни, при их переводе трудно найти альтернативу, поскольку безэквивалентные слова представляют свою национально-культурную жизнь в лексике каждого народа.

Ключевые слова: безэквивалентная лексика, реалия, транслитерация, транскрипция, калькирование, описательный метод, гиперономный перевод, конкретизация, ассоциативный перевод.

**LANGUAGE UNITS WITH NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS - METHODS
OF TRANSLATION OF NON-EQUIVALENT LEXICON AND REALIA**

Abstract. This paper is devoted to translation problems of non-equivalent vocabulary. Linguistics has not created all the ways to translate such vocabulary into another language. If we compare the languages and cultures of different nations, we can identify compatible and incompatible elements. Incongruent elements include primarily non-equivalent vocabulary items and connotations that are specific to words in one language and are absent or different from words in another language. Non-equivalent vocabulary refers to words and phrases that denote objects, processes and other realities of life, it is difficult to find an alternative version when translating them, because non-equivalent words represent their national-cultural life in the vocabulary of every nation shows.

Key words: non-equivalent vocabulary, realia, transliteration, transcription, tracing, descriptive method, hypernomic translation, specification, associative translation.

Kirish. Bugungi ilm-fan jadal rivojlanib borayotgan davrimizda zamonaviy lingvistik paradigma borasidagi tadqiqotlar shiddat bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy lingvistik paradigmada lingvokulturologiya va lingvo-mintaqaviy tadqiqotlar juda muhim o‘rinni egallaydi. Til va madaniyat sohasidagi tadqiqotlarning

LINGUISTICS

ko‘pligi, tilning kognitiv funksiyasini tushunish dolzarb muammo ekanligini ko‘rsatib beradi. Tilshunoslikda shunday tushunchalar borki ular xalqlar madaniyatining oynayi jahoni sifatida xizmat qiladi. Ekvivalent siz leksika va realiyalar ana shunday so‘zlar hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida ekvivalent siz leksika termini tarjima muammolari bilan shug‘ullanadigan ko‘plab mualliflar asarlarida uchraydi, ammo ularning har biri bu terminni turlicha talqin qilishadi: ba‘zida "realiya" tushunchasining sinonimi sifatida, ba‘zan biroz kengroq ma‘noda yoritib berishadi. Shunday qilib, masalan, A.D.Shveytser ekvivalent siz leksika toifasini "boshqa madaniyatda aniq mos kelmaydigan madaniy vogelikni belgilashga xizmat qiluvchi leksik birlıklar" deb tasniflaydi [1, b. 245]. V. N. Komissarov ekvivalent siz leksikani "tarjima tilda muntazam yozishmalarga ega bo‘lmagan til birlıkları" deb ataydi [1, b. 245]. Bolgar tilshunoslari S. Vlahov va S. Florinlar ham muqobilsiz leksikaga o‘z ta‘rifini berishadi, bu esa ekvivalent siz leksika chegaralarini sezilarini darajada toraytiradi va unga: "ekvivalent siz leksika-mos tilda tarjima ekvivalentiga ega bo‘lmagan leksik birlıklardır" deb ta‘rif beradi [2, b. 155].

S. Vlahov va S. Florin ham ekvivalent siz leksikani realiyalardan aniqroq ajratishni taklif qiladi. Ularning fikricha, ekvivalent siz leksika tushunchasi o‘z mazmuniga ko‘ra eng kengdir. Realiyalar esa mustaqil so‘zlar doirasi sifatida ekvivalent siz leksikaning bir turi doirasiga kiritilgan [2, b. 319]

A.V.Fedorov ekvivalent siz leksika guruhiga "milliy o‘ziga xos vogelikni bildiruvchi so‘zlar" deb ta‘rif beradi [14, b. 319]. Ya.I.Retsker "ekvivalent bo‘lmagan" lug‘at sifatida "birinchi navbatda, chet tilining mamlakatiga xos bo‘lgan va boshqa tilga va boshqa vogelikka yot bo‘lgan realiyalarni belgilaydi" [8, b. 319]. Realiyalarga juda ixcham ta‘rif L. S. Barxudarov tomonidan berilgan bo‘lib u "boshqa tilda so‘zlashuvchi kishilarning amaliy tajribasida mavjud bo‘lmagan narsa, tushuncha va vaziyatlarni bildiruvchi so‘zlar" dir deydi [3, b. 240].

V.N.Komissarov ekvivalent siz leksikanini "til funksiyasining mahsuli bo‘lgan bilimlar, ya‘ni so‘zlashuvchilar ongida mavjud bo‘lgan bilimlar ombori sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan ma‘lum bir madaniyatga xos hodisalar belgilari" deb ta‘riflaydi [1, b. 248].

Metodlar va o‘rganilish darajasi.

Demak ekvivalent siz leksika ma‘lum bir xalq so‘zlashuvchilari milliy-madaniy hayotini ko‘rsatib beruvchi, faqatgina so‘zlashuvchi til egalariga ma‘lum bo‘lgan voqe va hodisalarini ifodalovchi so‘zlar ekanligini hisobga olsak, tarjimon bunday so‘zlar ma’nosini yetkazib berishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Ekvivalent siz leksikani tarjima qilishda birinchi navbatda tarjima tilida ekvivalent umuman bo‘lmaydi, ikkinchidan tarjima jarayonida tarjima qilinayotgan so‘zning nafaqat tarjimasi, balki undagi milliy kolorit, ma‘no nozikligi va so‘z shiradorli ham saqlab qolinishi zarur. Shuningdek, har bir olim o‘z ilmiy tadqiqotlaridan kelib chiqib, muqobilsiz leksikani tarjima qilishning turlicha usullarini ishlab chiqqan va ular quyidagilar:

1. Transliteratsiya usuli.

Mazkur usul mohiyati jihatidan boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish, neologizmlar kiritishga o‘xshab ketadi. Tilshunoslar S. Vlahov va S. Florinlar bu usulni neologism orqali tarjima qilish deb ham ataydilar. Bu usulda tarjima tili harflari yordamida asliyat tilidagi ekvivalent siz leksikaning tarjima muqobili shakllantiriladi. Bunday usulda tarjima qilingan so‘zlar tarjima tilining fonetik qoidalari asosida talaffuz qilinadi. Bunday tarjimadan ko‘pincha atoqli otlar, geografik joy nomlari, tashkilot, muassasalar, mehmonxonalar, bosmaxonalar nomlarini tarjima qilishda foydalilanadi. Masalan, ingliz tilida: "grapefruit" so‘zi o‘zbek tilida "greypfrut" deb, ingliz tilidagi "Interpol"- o‘zbek tilida "interpol" deb, o‘zbek tilidagi "mahsi" so‘zi esa ingliz tilida "makhsı" deb transliteratsiya usulida tarjima qilinadi.

Transliteratsiya usuli tarjima tilida muqobil variant umuman bo‘lmaganda qo‘llaniladi. Masalan, Rossiya "rubl"ini o‘zbek "so‘m"iga, o‘zbek "do‘ppi"sin o‘rniga "shlyapa" yoki "to‘n", "yaktak", "chopon" o‘rniga boshqa tildagi "palto" yoki "plash" so‘zlarini qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki ko‘p hollarda ekvivalent bo‘lgan so‘z yoki realiyalar, asliyat tilidagi milliy-madaniy koloritni ifodalab turadi. Quyida tarjimada transliteratsiya usulni ko‘rsatib berilgan;

Quoting Picasso on his Instagram, Banksy wrote: "The urge to destroy is also a creative urge — Picasso." [10] Tarima qilinganda: "O‘zining Instagram sahifasida Pikassodan iqtibos keltirgan holda, Benksi shunday deb yozdi: "Yo‘q qilish istagi ham ijodiy ishtiyoqdir - Picasso."²

2. Transkripsiya usuli.

Mazkur usulda ekvivalent siz leksik birlik talaffuzi tarjima tilidagi harflar bilan beriladi. Bunday usuldan kishi va joy nomlarini tarjima qilishda qo‘llaniladi. Masalan, O‘zbekiston-Uzbekistan, Buxoro-Bukhara, Bradly-Bredli, Lockwood-Lokvud.

² Tarjima muallif tomonidan bajarilgan.

LINGUISTICS

Ushbu tarjima usulining afzalligi shundaki tarjimon faqat so‘zning tovush qobig‘ini o‘zgartiradi, lekin ayni paytda yangi konsepsiyanı tushuntish mushkulotidan va uni noto‘g‘ri talqin qilish xavfidan ochadi.Tarjima transkripsiyasining kamchiligi shundaki, yangi tushunchaning mazmuni o‘quvchi uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi yoki faqat kontekstdan tushunish mumkin bo‘lishi hisoblanadi.

3. Kalkalash usuli.

Bu usulda (semantik o‘zlashish) so‘z yoki iborani tarjimasi so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali uni mazmuni yetkaziladi.Masalan, ingliz tilidagi “The Black sea” so‘zi rus tilida “Черное море”, o‘zbek tiliga “Qora dengiz” deb so‘zma so‘z tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi “Rugby school”so‘zi rus tilida “школа Рагби”, o‘zbek tiliga “regbi maktabi” deb kalkalash usulida tarjima qilinadi. [10].

L.K.Latishev ushbu tarjima usulini yuqori baholaydi va bu usul orqali ekvivalent siz leksik birlik ifodalaydigan ichki shakli (konstruksiysi) nimani anglatishini qanchalik aks etishiga bog‘liq ekanligini aytib o‘tadi [9, b. 168]. Ushbu usulning salbiy tomoni shundaki, u faqat ekvivalent siz leksika so‘z birikmasi tarkibida bo‘lsagina qo‘llaniladi, ammo joy nomlari tarjima qilishda bu usuldan foydalanimaydi .

4. Tasviriy usul.

Bu usuldan muayyan so‘z yoki iborani na tranliteratsiya, na transkripsiya va na kalkalash usuli yordamida tarjima qilib bo‘lmaganda ushbu usuldan foydalanimaydi. Bu usulda asliyat tilidagi bir so‘zni o‘rniga tarjima tilida butun bir gap, so‘z iborasi yoki frazeologik birliliklar ifodalanishi mumkin. Chunonchi, bu usulda tarjimon tarjima qilganda so‘zni tasvirlab beradi. I.S. Alekseeva tavsifiy tarjima turli hollarda qo‘llanishini yozadi: “og‘zaki tarjimada tarjimon negadir mos topa olmagan so‘zning ma’nosini yetkazish; tarjimaning barcha turlarida - ekvivalent bo‘lmagan leksik birlikni moslashtirish jarayonida, so‘zning ma’nosini aniqlashtirish uchun ichki izohga muhtoj bo‘ladi, mana shunday hollarda tasviriy usuldan foydalanimaydi” [3, b. 169]. Uning fikricha, tasviriy tarjima leksik qo‘shimchalar bilan birga umumlashma leksik birliklarni almashtirishda qo‘llaniladi [3, b. 169]. Masalan: fashion house - "Modellar uyi" (ayollar liboslari ulgurji do‘koni), WSPU - ijtimoiy va ayollar siyosiy ittifoqi (ayollar huquqlari uchun kurashgan tashkilot Buyuk Britaniyada) [10].

5. Giperonomik tarjima.

Giperonomik tarjimada tarjima tilining ekvivalent bo‘lmagan leksik birligi tarjima tilida kengroq, umumiyl ma’noga ega bo‘lgan so‘z bilan almashtiriladi. Boshqa so‘zni o‘z ichiga olgan, ya’ni berilgan so‘zni bo‘ysundiruvchi so‘z unga nisbatan giperonimdir. Tarjimaning bu usuli mohiyatan umumlashtirishga o‘xshaydi. Masalan: ingliz tilida “shepherd” so‘zi- rus tilida “собака”, o‘zbek tilida” esa “it” deb, ingliz tilidagi “grandparents” so‘zi, rus tilida “бабушка и дедушка”, o‘zbek tilida “bobo-buvi” deb giperonomik tarjima usulida tarjima qilinadi [10].

6. Muqobilsiz leksikani xuddi shu tematik seriyadagi so‘z bilan almashtirish.

Tarjima tilidagi muqobilsiz leksika asliyat tilidagi shu tematik qatordagagi so‘z orqali tarjima qilinadi. Shuni ta’kidlash kerakki, tematik seriyaga faqat bitta darajadagi umumlashtirilgan so‘zlar kiradi. Bunday qator umumiyl gipersemaga ega bo‘lgan so‘zlarni birlashtiradi va bu qatorda esa dominant so‘z yo‘q. Masalan: ingliz tilidagi “tube” so‘zi o‘zbek tilida “metro” deb, hamda ingliz tilidagi “title” so‘zi o‘zbek tilida “unvon” deb shu tematik seriyadagi so‘z bilan almashtiriladi.[10].

7. Asliyat tilidagi realiyani tarjima tilidagi realiyaga almashtirish

Tarjimaning bu usulni tarjima qilinayotgan realiyani ma’nosi yetkazib berishda uni asliyat tilidagi unga o‘xshash bo‘lgan realiyadan foydalanimishdir. Ushbu usul juda kamdan kam qo‘llaniladi, chunki asliyat tilidagi realiyani tarjima tilidagi realiya bilan almashtirishda ,uning hissiy va madaniy rangi ham almashtiriladi. Masalan: ingliz tilidagi “Firebird” so‘zi rus tilida “Жар-птица”, o‘zbek tilida “olov qush” deya, ingliz tilida ”Mr” so‘zi rus tilida “господин”, o‘zbek tilida “janob” deb, ingliz tilidagi “marshmallow” so‘zi rus tilida “зебир”, o‘zbek tilida “zefir” deb tarjima tilidagi realiyaga almashtiriladi [10].

8. Konkretlashtirish (Spetsifikatsiyalash)

Konkretlashtirish - chet tilining ekvivalent bo‘lmagan leksik birligini kengroq ma’noli ekvivalent bo‘lmagan leksik birlik bilan tor ma’noga almashtirishdir [3, b. 164-165]. N.K. Garbovskiyning fikriga ko‘ra, konkretlashtirish “tarjimon umumlashtirish zanjiri bo‘yicha tarjima so‘zi yoki iborasida mavjud bo‘lgan keng qamrovli va unchalik murakkab bo‘lmagan konsepsiyanı yanada cheklangan, ammo aniqroq tarkibdagi murakkabroq tushuncha bilan almashtiradigan transformatsion operatsiyadir.” [8, b. 433]. Spetsifikatsiyalash usulida ekvivalent siz leksika tarkibiga yangi elementlar kiritiladi va tarjima tilidagi ekvivalent bo‘lmagan leksik birlik tushunchasiga yangi xususiyatlar qo‘shiladi [8, b. 433].

9. Qo‘shimcha qo‘shish.

Quyidagi tarjima usuli ham muqobilsiz leksikani tarjima qilishning bir turi bo‘lib, u tarjima paytda tarjima tilidan olib tashlangan mos so‘zlarni tiklashga asoslangan. Tarjimaning bu turi asliyat tilidagi grammatic tuzilishdagi farqlar hamda undagi ma’noni to‘liq yetkazib berish uchun qo‘llaniladi. Masalan,

LINGUISTICS

Masalan: a double whisky— sodasiz viskining qo'sh porsiyasi, macaron — makaron (tuxum oqi, bodom va shakardan tayyorlangan fransuz shirinligi) [10].

10. Assotsiativ tarjima.

Ushbu usulda chet tilida ekvivalent bo'limgan lug'at assotsiatsiya orqali uzatiladi. Chet tilining leksik birligi tilda so'zlashuvchilarda ko'rib chiqilayotgan ekvivalent bo'limgan leksik birlik haqida gapirganda, ona tilida so'zlashuvchilarda paydo bo'ladigan assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishga qodir bo'lgan leksik birlik bilan almashtiriladi. Misol uchun: How to feed a fresher? Bu yerda "fresher" so'zi "birinchi kurs talabasi" deb assotsiatsiya usulida tarjima qilinadi [10].

Xulosa. Tarjimondan tarjima jarayonida badiiy asarni mazmunini, milliylik ruhini, har bir so'zning mag'zini undagi rango-rang milliylik belgilarini to'liq va tushunarli qilib yetkazib berish mas'uliyati talab qilinadi. Buni bajarmoq uchun esa tarjimon transliteratsiya, transkripsiya, kalklash, tasviriy tarjima metodi, giperonomik tarjima, assosativ tarjima, kontekstga xos tushuntirishlardan foydalanish yoki kerak bo'lganda yangi so'z yoki iboralar yaratish, qo'shimcha qo'shish, konkretlash yoki asliyat tilidagi realiyalarni tarjima tilidagi muqobil variantiga almashtirish kabi usullardan foydalanishi mumkin, ammo bu usullarda ham so'zlarning madaniy ma'nosi saqlab qolinmasligi mumkin. Shuning uchun tarjimonlar ekvivalentsiz so'zlarning ahamiyatini tushuniib, tarjima tilining ijtimoiy turmush tarzi va madaniyatini o'rGANIB, tarjimaning murakkabligini hisobga olgan holda, asl matnning yaxlitligini saqlab qolishlari va uning ma'nosini yangi auditoriyaga samarali yetkazishlari mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. — М.: Международные отношения, 1973. — 245с.. Н. Н. университета, 1963 г.
2. Л. Влахов, Флорин. Непереводимое в языке, М.: Международные отношения, 1980 Л. Федоров А. В. Практические основы перевода. — СПб.: Союз, 2002. — 319 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) / Л.С.Бархударов. — М.: Международные отношения, 1975. — 240 с.
4. Бреус, Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский: учеб. пособие. 2-е изд., испр. и доп. / Е.В.Бреус. — М.: УРАО, 2000. — 208 с.
5. Верещагин Е.М., Костомаров, В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Под ред. Ю.С. Степанова / Е.М.Верещагин, В.Г.Костомаров. — М.: Индрик, 2005. — 1040 с.
6. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы) / В.С.Виноградов. — М.: Изд-во института общего среднего образования РАО, 2001. — 224 с.
7. Влахов, С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Под ред. Вл. Россельса / С.Влахов, С.Флорин. — М.: Международные отношения, 1980. — 343 с.
8. Гвоздович Е.Н. Безэквивалентная лексика: теория и практика перевода: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Е.Н.Гвоздович. — Минск: ТетраСистемс, 2010. — 84 с.
- 9.Латышев Л.К. Технология перевода: учеб. пособие для студ. лингв, вузов и фак. / Л.К.Латышев. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательский центр «Академия», 2005. — 320 с.
10. Мердок А. Черный принц / Пер. с англ. А. Поливановой, И. Бернштейн / А.Мердок. — М.: Эксмо, 2013. — 560 с.
9. Rasulov, Z. (2022). So'z birikmasining axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi . Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8363
- 10.Rasulov, Z. (2022). Information forming tools (factors) in the structure of discourse. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 15(15). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6981